

XALQ TA’LIMI TIZIMI HODIMLARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH

G.To‘rayeva
AVPYMO‘MM Pedagogika va psixologiya,
ta’lim texnologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada uzluksiz ta’lim tizimida ishlaydigan har bir mutaxassis uzluksiz kasbiy rivojlantirish ma’lumotga ega bo‘lish bilan cheklanmasdan, aynan shu ta’lim va tarbiya berishga maxsus tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lishi, metodik va zamonaviy yondashuvlarga alohida e’tibor qaratgan bo‘lishi maqsadga muvofiqligi haqida fikrlar bildirilgan..

Kalit so‘zlar: buyurtmachi, ixtisoslashtirilgan ta’lim tashkiloti, kredit, malaka talablari, mutaxassislar, o‘quv moduli, pedagog xodimlar, qayta tayyorlash, rahbar xodimlar, tinglovchi, yangi texnologiyalar.

Annotation. In the article, every specialist working in the continuing education system is not limited to having knowledge of continuous professional development, but has specially prepared for this education and upbringing, paying special attention to methodical and modern approaches. Opinions were expressed about the expediency.

Keywords: customer, specialized educational organization, credit, qualification requirements, experts, educational module, teaching staff, retraining, management staff, listener, new technologies.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 17.01.2022 yildagi 25-son “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risi”dagi nizomda takidlanganidek:

Uzluksiz kasbiy rivojlantirishning maqsadi — xodimlarning egallab turgan lavozimlari, mutaxassisligi yoki dars beradigan fanlari bo‘yicha kasbiy va pedagogik mahorati doimiy ravishda o‘sib borishini, ularning ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari, shuningdek, o‘qitishning interaktiv usullari bo‘yicha kasbiy bilimlari, malaka va ko‘nikmalari muntazam ravishda yangilab borilishini ta’minlash hamda ularni davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va sohaga oid qonunchilik bilan muntazam tanishtirib borishdan iborat[1].

Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

buyurtmachi— Xalq ta’limi vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari, tizimida umumiy o‘rta, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari mavjud bo‘lgan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar, shuningdek, nodavlat umumta’lim tashkilotlari;

ixtisoslashtirilgan ta’lim tashkiloti— A. Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti, Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari, malaka oshirish faoliyati bilan shug‘ullanadigan nodavlat ta’lim tashkilotlari, pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari;

kredit— tinglovchining alohida o‘quv moduli bo‘yicha o‘qishi va o‘zlashtirishi uchun sarflanadigan va ballarda ifodalanadigan, muayyan o‘quv moduli bo‘yicha belgilangan topshiriqlarni bajarib, tegishli nazorat shaklidan muvaffaqiyatli o‘tgandan so‘ng beriladigan o‘quv yuklamasi;

malaka talablari— kasbiy rivojlanish kursi (o‘quv moduli) bitiruvchisining umumiy bilim va kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablar;

mutaxassislar— xalq ta’limi tashkilotlarida metodist, defektolog, logoped, psixolog, kutubxonachi va mutaxassis lavozimlarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxslar;

pedagog xodimlar— xalq ta’limi tashkilotlarida ta’lim-tarbiya faoliyatini amalga oshiruvchi o‘qituvchi va tarbiyachilar;

rahbar xodimlar— xalq ta’limi tashkilotlari va ularning tarkibiy bo‘linmalarida boshqaruv funksiyalari va vazifalarini bajaruvchi shaxslar hamda ularning o‘rinbosarlari, shuningdek, xalq ta’limi tizimidagi hududiy boshqaruv organlari mutaxassislari;

tinglovchi— ixtisoslashtirilgan ta’lim tashkilotiga qayta tayyorlash yoki malaka oshirish kursiga qabul qilingan xalq ta’limi xodimi;

xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish (keyingi o‘rinlarda — uzluksiz kasbiy rivojlantirish) — shaxs kasbiy salohiyatining individual va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda hayot davomida o‘sishi jarayoni;

qayta tayyorlash(malaka oshirish)kursi— qayta tayyorlash (malaka oshirish)ning tasdiqlangan o‘quv rejasi va dasturlari asosida ishlab chiqilgan mashg‘ulotlar tizimi;

o‘quv moduli— nisbatan mustaqil, mazmunan yaxlit o‘quv kursi yoki ta’lim texnologiyasining minimal hajmdagi tarkibiy birligi;

“Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi (keyingi o‘rinlarda — elektron platforma) — o‘quv modullari kontentlarini yaratish, saqlash va ularni ta’lim oluvchilarga taqdim etish, shuningdek, ta’lim oluvchilarni ro‘yxatga olish va ularga o‘quv modullarini onlayn tarzda o‘zlashtirish imkoniyatini beruvchi maxsus elektron dasturiy tizim;

Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug‘ullanadigan nodavlat ta’lim tashkilotlari reyestri (keyingi o‘rinlarda — Reyestr) — xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi nodavlat ta’lim tashkilotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini o‘z ichiga olgan elektron axborot tizimi. Yuqorida ta’riflangan tushunchalarni har bir pedagog-hodim oldiga nizom bo‘yicha quyidagi vazifalarni qo‘ymoqda.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirishning asosiy vazifalari:

— xodimlarning doimiy kasbiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadigan ta’lim muhitini yaratish;

—mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini singdirish va xodimlarning qobiliyatini rivojlantirish hamda yangi bilimlar berish orqali o‘z ustida mustaqil ishlash va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;

—xodimlarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi asosida kompetentlik darajasini oshirish va kasbiy mahoratini takomillashtirish;

—ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish;

—umumiy o‘rta ta’lim sifatini oshirishning asosiy manbai sifatida xodimlarning kasbiy rivojlanishini, tashabbuskorligini, ilmiy tadqiqotlarga intilishini va ijodiy mahoratini rag‘batlantirish[1].

Xalq ta’limi tizimi hodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning ahamiyati juda katta. Bu, bir qator sabablar orqali asoslarga imkon beradi:

1. **O‘quvchilarga yuqori sifatli ta’lim berish:** Hodimlarining o‘zlarini rivojlantirish, ularning o‘quvchilarga yuqori darajadagi sifatli va samarali ta’lim berishiga

yordam beradi. O‘quvchilar, motivatsiyalash, ma’lumotlarni o‘rgatish, tajribalarini amalda qo‘llash yo‘li bilan hodimlarining rivojlanishiga ko‘mak qiladi.

2. **Yangi texnologiyalarga moslashtirish:** Xalq ta’limi sohasida yangi texnologiyalar va o‘qitish usullari katta o‘rin egallayapti. Hodimlar bu texnologiyalarni o‘rganish, ularga ishlov berish orqali, o‘quvchilarga eng zamonaviy va samarali ta’lim berishlari uchun tayyorlashlari kerak.

3. **Innovatsiyalarni o‘rnatish:** Kasbiy rivojlantirish, innovatsiyalarni o‘rnatish va yangiliklarni qabul qilishga ko‘mak beradi. Hodimlar yangi o‘qitish metodlarini sinab ko‘rish, o‘quvchilar uchun yangi darsliklar va materiallar tayyorlash ta’lim jarayonini qiziqtirish uchun yangi yo‘nalishlar ochish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

4. **Ta’lim tizimini mustahkamlash:** Xalq ta’limi tizimini kasbiy rivojlantirish orqali o‘qituvchilar, rahbar va boshqa hodimlar orasidagi professional o‘shni ta’minlash uchun mustahkamlanadi. Bu o‘quvchilar va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi hamda o‘quv jarayonini samaraliroq qiladi.

5. **Yangi sohalarda bo‘sh ish o‘rinlari yaratish:** Xalq ta’limi sohasidagi hodimlarining rivojlanishi yangi sohalarda bo‘sh ish o‘rinlarini yaratish va ularga tayyor hodimlarni jalb etishga yordam beradi. Bu esa, ta’lim tizimining rivojlantirilishi, o‘quvchilarga eng yaxshi xizmatni taqdim etishga olib keladi.

Jamiyatning rivojlanishi va rivojlanayotgan texnologiyalar va zarur ko‘nikmalar oldida, xalq ta’limi tizimi hodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni kuchaytirish muhimdir. Bu, o‘quvchilarni jamiyatga foydali hodimlar qilib tayyorlashda muhim ro‘l o‘ynaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tushunchasining hae qancha tahlil qilmaylik rivojlanish an’anaviy va uzoq tarixga borib taqalishini ko‘rsatdi. Ta’lim nazariyasi va tarixiga doir o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadikikasbiy uzluksiz rivojlanishning asosi ta’limda individuallashtirish qadimgi, antik, o‘rta va hozirgi davrdagi tadrijiy taraqqiyotini tushunish orqali uning rivojlanish trayektoriyasini aniqlashga imkon berishdir.

Shu bilan birgalikda ta’kidlashimiz mumkinki, rivojlangan xorijiy davlatlarda pedagoglarni kasbiy rivojlantirish individuallashtirish sohasiga doir bilimlarning sezilarli darajada kengayib borayotganligi, yangi tajribalar bilan boyitilayotganligi, ta’limning fundamental tushunchasi sifatida qaralayotganligi hamda barqarorlikka ega ekanligi natijasida erishilgan muvaffaqiyatlarni milliy pedagogikamizga singdirish mamlakatimizda ta’lim maqsadlariga erishish va sifatini ta’minlash uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 17.01.2022 yildagi 25-son “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risi”dagi nizomi

2. Бурлакова Т.В. Индивидуализация профессиональной подготовки студентов в современном педагогическом вузе: дисс... док. пед. наук. – Ярославль, 2012. – 372 с.

3. Xasanov A.A., Uroкова Sh.B. (2021). Sifrovizatsiya obrazovaniya na sovremennom etape razvitiya informatizirovannogo obshchestva. Scientific progress, 2 (1), 300-308.

4. Nurumbekova Y. Tarbiyachi kasb faoliyatida innovatsion texnologiyalar. – Guliston: Ziyο, 2012. –B. 22. - 116 –
5. Raxmanova, M. K. Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning nazariy metodologik asoslari. Xalq ta’limi. (2019).
6. www.Lex.uz
7. www.Ilm.uz
8. www.Ziyo.net
9. www.pedagog.uz